



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Erdanov Jasur Odil o'g'li

Toshkent moliya instituti talabasi

M.Mirzayev

Ilmiy rahbar, "Xalqaro moliya kafedra"si

### O'ZBEKISTONNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASHDA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

**Annotatsiya:** Mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, xorijiy investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etishni rivojlantirish, korxonalar va tashkilotlarning investitsiya faolligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish yo'llari asoslab berilgan

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, eksport, soliq va bojxona to'lovlari, soliq imtiyozlari, korxonalar.

Har qanday mamlakat aholisining iqtisodiy farovonlik darajasi bevosita bu yerda shakllangan iqtisodiy tizimga bog'liq bo'ladi. Shu sababli mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish investitsiya muhitini yaxshilashni talab etadi. Bu yo'lda kichik bir korxonaning investitsiya salohiyatidan boshlab to' keng ko'lamlil yirik biznes, katta korporativ tuzilmalar va notijoriy faoliyatlarning investitsiya salohiyatidan iborat bo'lgan mamlakat investitsiya muhiti iqtisodiyotning o'sishida katta ahamiyat kasb etadigan dolzarb masaladir.

Investitsiya muhiti iqtisodiyotni o'zida aks ettiruvchi oyna kabidir. Bir inson dunyoga kelib to umrini oxirigacha yaxshi yashashi u tug'ilgan va yashaydigan muhitga qanchalik bog'liq bo'lsa, inson hayoti davomida shakllangan yoki yangidan shakllanadigan iqtisodiy rivojlanish uning investitsiya muhitiga shunchalik bog'liq bo'ladi. Dunyoda yetakchi va rivojlangan mamlakatlarning ilg'or iqtisodiyoti keng ko'lamlil investitsiya muhiti asosida shakllangan. Misol uchun: Germaniyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi, Yaponiyaning u yerda atom bombasi portlashidan keyingi yoki boshqa davlatlarga nisbatan butun tarixi davomida kamroq talofat ko'rgan AQSh ning erishgan iqtisodiy mo'jizalari bu davlatlar tomonidan shakllantirilib yuqori sifatda faollashtirilgan investitsiya muhiti natijalaridir. Ta'kidlash joizki, investitsiya muhiti - bu investitsiya resurslari, investitsiya subyektlari, investitsiya faoliyati, mahalliy aholining asosiy faoliyati, investitsiya siyosati, investitsiya qonunchiligi, investitsiya salohiyati, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot va xalqaro munosabatlardan iborat turli xil harakatlardagi o'zaro amalga oshuvchi jarayonlarning holatidir. Investitsiya muhitini ijobiy yuqori darajaga ko'tarish uni shakllantiruvchi jarayonlarni sifatli darajada jamoaviy bajarishni talab etadi. Investitsiya muhiti iborasi investitsiya iqlimi iborasi bilan bir xil mazmun-mohiyatga ega bo'lib, bu to'g'risida mamlakatimizning va boshqa davlatlarning iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilari turli ilmiy



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

izlanishlar olib borishgan, o'z davriga mos va ilmiy tasdig'ini topgan natijalarga erishishgan. Jumladan, iqtisodchi olimlarimiz G'ozibekov D. va Qoraliyev T. investitsiya muhiti

to'g'risida quyidagi fikrni e'tirof etishgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi".

Investitsiya muhitini yaxshilashning ahamiyati va dolzarbligi birgina rivojlanayotgan yurtimiz O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rinadi. O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash yo'lida 2017 yildan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida xususiy sektor bo'yicha tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko'plab imtiyozlar berilib, jahon standartlariga mos tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko'paytirildi va ularning eksport qilinishiga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash borasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- 2019 yilda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi;
- aksiyadorlik jamiyati ustav jamg'armasining minimal miqdori 400 mln. so'mgacha kamaytirildi;
- chet ellik jismoniy shaxslarga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar muassisi (qatnashchisi) sifatida bevosita harakat qilish huquqi berildi;
- xorijiy investitsiyalar ulushining minimal miqdori 15 foizgacha pasaytirildi;
- investorlarni qonunchilikdagi o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan jahon miqyosidagi anjumanlar tashkil etilib o'tkazish yo'lga qo'yildi va hozirda ham o'tkazilmoqda;
- konsessiyaviy (imtiyozli) bitim muddatini oshirish yo'lga qo'yildi;
- xorijiy investorlar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish va xorijiy ishchi kuchini jalb etish sohasida hujjatlashtirish, ruxsatnomalardan o'tish soddalashtirildi;
- buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan bir qatorda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari ham amaliyotda qo'llash joriy qilindi;
- yer uchastkalarini ijaraga berish tartibi takomillashtirildi;
- litsenziyalash va ruxsatnoma berish tartib-tamoyillari takomillashtirildi;
- 2018-2019 yillarda 5 tadan kam bo'lmagan obyektlarda aksiyalarni aholiga birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni o'tkazish orqali xususilashtirish jarayonlari jadallashtirildi;
- chet ellarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallari ochildi va masofaviy o'qitish mexanizmlari tatbiq etildi.

Investitsiya muhiti turli xil reyting va statistik ma'lumotlarni umumlashtirib tahlil qilish orqali ham aniq ko'rinadi. Jumladan, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan biznes reytinglar bo'yicha O'zbekiston bir necha bosqichma-bosqich natijalarga erishganligi e'tirof etilgan. Shu o'rinda qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasining Jahon banki bilan



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'zaro hamkorligi 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqaiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikda O'zbekiston Respublikasining a'zoli to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Bugungi kun ma'lumotlariga ko'ra Jahon banki "Doing business" bayonotlariga checklov qo'ygan bo'lsada, biz uning oldingi yillar uchun berilgan ma'lumotlaridan foydalanib mamlakatimiz iqtisodiyoti va investitsiya muhiti to'g'risida tasavvur, tahlil va xulosalar qilishimiz mumkin.

Jahon bankiga tegishli "Doing business" bayonotlarida hozirda Jahon bankiga a'zo 190 davlat qatori 2020-yilda O'zbekiston uchun quyidagi reyting natijalari e'lon qilingan:

*1-jadval*

*O'zbekiston Respublikasi viloyatlari bo'yicha moliyalashtirish manbalarining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi, %<sup>1</sup>*

	Korxonalar va a'holining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:		
			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	chet el investitsiyalari va kreditlari
2020					
O'zbekiston Respublikasi	40,8	59,2	6,8	7,6	42,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	39,1	60,9	12,1	7,7	38,9
<i>viloyatlar:</i>					
Andijon	47,6	52,4	6,3	8,7	36,3
Buxoro	38,3	61,7	5,8	7,4	48,2
Jizzax	20,9	79,1	5,5	9,3	61,9
Qashqadaryo	21,6	78,4	3,6	3,8	69,3
Navoiy	25,8	74,2	1,9	2,3	67,8
Namangan	41,9	58,1	5,9	14,3	37,2
Samarqand	53,0	47,0	8,0	10,7	27,0
Surxondaryo	23,7	76,3	7,5	7,6	60,1
Sirdaryo	29,9	70,1	7,8	11,2	48,7
Toshkent	51,6	48,4	9,6	8,8	26,7
Farg'ona	43,3	56,7	7,6	7,0	41,3
Xorazm	41,2	58,8	8,5	14,5	32,0
Toshkent sh.	54,0	46,0	6,8	6,1	29,9

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi <https://www.stat.uz/uz/>



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Quyida 1-jadval orqali O'zbekiston hududlari bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiya tarkibining moliyaviy manbaalari hissasini ko'rish mumkin. Jumladan, 2020 yilgi hisobot davrida Respublika bo'yicha moliyalashtirish manbalariga ko'ra asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 100% lik tarkibining 40,8 % ni korxonalar va aholining o'z vositalari tashkil qilgan bo'lsa, ko'proq qismini, ya'ni 59,2 % ni jalb qilingan mablag'lar tashkil qilmoqda. Hududlar bo'yicha eng kam investitsiya salohiyati Jizzax viloyatida ko'rinmoqda. Jizzax viloyati bo'yicha asosiy kapitalga jalb qilingan mablag'larning korxonalar va aholi o'z vositalariga to'g'ri kelgan miqdori 20,9 % dan iborat bo'lmoqda. Yana bir eng kam investitsiya salohiyati mavjud hudud Qashqadaryo viloyati bo'lib, hudud investitsion salohiyatining korxonalar va aholi o'z vositalari miqdori 21,6 % qayd etdi. Bu viloyatlarning o'z kapitali miqdori chegaralanganligi sababli eng ko'p jalb qilingan mablag'lar ular tomondan qabul qilinganligini jadvaldan ko'rish mumkin. Ya'ni, Jizzax viloyati 79,1 % va Qashqadaryo viloyati 78,4% asosiy kapitalga o'zlashtirgan mablag'larni davlat byudjeti, banklarning kreditlari, chet el investitsiyalari va kreditlari sifatida kiritgan. Eng ko'p chet el investitsiyalari Qashqadaryo viloyati tomondan qabul qilinganligi bu hududda jadal iqtisodiy rivojlanish amalga oshirilayotganligini bildiradi va bu viloyatning investitsiya salohiyatini ko'tarishga

sabab bo'lib investitsiya muhitining yaxshilanishiga olib keladi.

Investitsiya muhiti tug'risidagi turli xil va shakldagi tahliliy yondashuvlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qaysi jihatlarga e'tibor berish yo'lini ochib beradi hamda hududlar, tarmoqlar va sohalar bo'yicha nisbatan to'g'ri xulosalar qilib investitsiya muhitini yaxshilash uchun chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi. Garchi 2020 yil pandemiyaga qarshi keskin choralar qo'llanilgan davr bo'lsada, yurtimiz iqtisodiy tanglikka tushmasligi uchun respublika miqyosida ahamiyatli salmoqqa ega sohalar faoliyati belgilangan shart-sharoitlar asosida qo'llabquvvatlandi.

Xulosa qilinganda, mamlakat investitsiya salohiyati investitsiya muhitini shakllantiruvchilardan biri bo'lib, u keng qamrovli omil bo'lib, unga agrar ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish, mehnat salohiyati, iste'mol salohiyati, infratuzilma, institutsional salohiyat, innovatsiyalar, tabiiy resurslar, turizm salohiyati, milliy va xalqaro moliyaviy salohiyat kiradi.

Investitsiya muhitini yaxshilashda mamlakat investitsiya salohiyatidan unumli foydalanish uchun:

- imkon qadar hududning o'ziga xos jihatlarini aniqlash zarur,
- aholi yashash holatidan kelib chiqib joylarda maqbul infratuzilmani rivojlantirish muhim vazifadir,
- tadbirkor aholi soninini ko'paytirish lozim,
- xalqaro savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish kerak,
- tarmoq va sohalar faoliyatining turli bosqichlariga mos keluvchi innovatsiyalarga investitsiya qilish miqdorini ko'paytirish zarur bo'ladi.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi; <https://www.stat.uz/uz/>
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasini.2018 yil 28 dekabr; <https://nrm.uz/>
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni; <https://www.lex.uz/>
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni; <https://lex.uz/>
- 5.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni; <https://president.uz/uz>
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni; <https://lex.uz/>
- 7.O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi <https://www.stat.uz/uz/>
- 8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi "Toshkent shahrining infratuzilmaviy rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori; <https://www.lex.uz/>
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishini va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni; <https://www.lex.uz/>